

№5-AMALIY ISHI

Mavzu: Turli xil qidiruv tizimlari bilan ishlash.

Ishning maqsadi: Talabalarga turli xil qidiruv tizimlari bo'yicha Amaliy ishlashni o'rgatish.

Ish uchun kerakli jihozlar: kompyuterlar, tarmoq uchun kerakli qurilmalar va dasturiy vositalar.

Qisqacha nazariy ma'lumot. Foydalanuvchiga tegishli axborotlarni ko'plari web-sahifalarda saqlanadi. Axborotlarni saqlaydigan Web-sahifani topish uchun internetdagi manzillarni topish zarur bo'ladi. Internetda axborotlar tezlik bilan o'zgarib, yangilanib boradi. Shuning uchun, axborotlarni topish maqsadida maxsus qidiruv tizimlaridan foydalaniladi. Bugungi kunda **www.uz**, **www.uz.uz**, **www.rambler.ru**, **www.mail.ru**, **www.yahoo.com**, **www.book.uz**, **www.google.uz**, **www.yandex.ru**, **www.google.ru**, **www.aport.ru** va boshqa qidiruv tizimlari xizmat ko'rsatmoqda.

Google - dunyo bo'yicha eng ko'p qo'llaniluvchi qidiruv tizimi hisoblanadi. Sodda va qulayligi bilan ajralib turadi.

http://google.com/ —ingliz tilidagi sayti;

http://google.co.uz/ —o'zbek tilidagi saytlar bo'yicha qidiruvga mo'ljallangan;

http://google.ru/ —rus tilida izlash uchun mo'ljallangan;

Yahoo — taniqliligi bo'yicha ikkinchi o'rinda turuvchi qidiruv tizimi. Ushbu portal avvallari Google qidiruv tizimi yordamida ishlagan, keyinchalik, o'zlari qidiruv tizimini ishlab chiqishgan. **http://yahoo.com/**

Windows Live Search (avvalgi MSN Search)- mashhur Microsoft kompaniyasining mahsuloti. Avval MSN Search deb atalgan, keyinchalik bir qancha qo'shimcha xizmatlari bilan birgalikda Windows Live tizimiga kiritilgan.

http://live.com/ —ingliz tilida;

http://www.live.com —rus tilida;

Yandex-rus internetida eng ommabop qidiruv tizimi. Deyarli hamma davlatlarda Google qidiruv tizimlari ommabopligi bo'yicha birinchi o'rinda turadi, shunga qaramay, Yandex Rosssiyada eng ommabop qidiruv tizimligicha qolyapti.

http://yandex.ru/ —asosiy sahifa;

http://Y.ru/ — faqat qidiruv;

GoGo qidiruv tizimi mail.ru portalining mahsuloti. Hozirda portaldagi qidiruvlar Yandex qidiruv tizimi yordamida ishlaydi. Keyinchalik, gogo, mail.ru portaliga biriktiriladi.

http://gogo.ru/ — asosiy sahifa;

search.uz Ushbu sayt ham UzNet bo'yicha qidiruv tizimi.

http://search.uz/ — ruscha qidiruv qidiruv tizimi;

Topshiriqlar:

1. Qidiruv tushunchasi haqida gapiring.
2. Axborotlarni qidirishni Amaliy bajarib ko'rsating.
3. Axborotlarni parametrlari bo'yicha qidirishni Amaliy bajarib ko'rsating.
4. Rasmlarni qidirishni Amaliy bajarib ko'rsating.

5. Musiqa va filmlarni qidirishni Amaliy bajarib ko'rsating.
6. www.uz - milliy axborot qidiruv tizimida ishlash.
7. Mashhur Internet qidiruv tizimlari: Google, Rambler, Yandex, Yahoo.
8. Ixtisoslashgan axborot qidiruv tizimlari haqida ma'lumot bering va Amaliy bajarib ko'rsating.
9. Ma'lumotlarni kompyuterga yuklash jarayonini ko'rsating.